

QADIMIY TANGALAR VA ULARNING IJTIMOY HAYOTDAGI O'RN

Mahmudov Samandar Salohiddin o'g'li

Buxoro davlat pedagogika instituti

Tarix yo`nalishi

1-TAR-23k guruh talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11090464>

Annotasiya. Ushbu maqolada tangalarni kelib chiqishi va uning sabablari hamda tangalar bilan qay tarzda savdo aloqalari olib borilishi, uning ijtimoiy hayotdagi roli haqida ma'lumot va mulohazalar keltirilgan.

Kalit soʻzlar: Yevropa, starter, O'rta Osiyo, tanga, kolleksiya, Xitoy, Hindiston, So'g'd, Buxoro, Somoniy, fals, dirxam.

ANCIENT COINS AND THEIR PLACE IN SOCIAL LIFE

Abstract. Information and comments are given on the origin of coins and its reasons, trade relations with coins and their role in public life.

Key words: Europe, starter, coins of Central Asia, coin, collection, China, India, Sogd, Bukhara, Somani, false, dirham.

ДРЕВНИЕ МОНЕТЫ И ИХ МЕСТО В ОБЩЕСТВЕННОЙ ЖИЗНИ

Аннотация. В статье представлены сведения и мнения о происхождении монет и его причинах, о том, как осуществляются торговые отношения с монетами, и о ее роли в общественной жизни.

Ключевые слова: Европа, стартер, Средняя Азия, монета, коллекция, Китай, Индия, Согд, Бухара, сомони, фальшивый, дирхам.

Tangalarni kelib chiqishi, tarixga kelsak tangalar oldin bòlmaganligini asosiy sababi to'g'kon sanoati rivojlanmaganligida hisoblanadi asosiy sabab. Tangalar bòlmagan paytda ibtidoiy jamiyatda ayirboshlash ya'ni natural savdo bòlgan. Ular savdoda masalan gòsh'tga va hokazo narsa buyumlarni almashgan. Tangalarning kelib chiqishi metallning kashf etilishi va to'g'kon sanoatining rivojlanib borishiga qarab rivojlanagan. Tangalar bòlmagan paytda ham pul munosabatiga yaqin natura kòrinishdagi chi'ganoq, itning tish qismi, chòchaqaning dumi va mòyna kabi mahsulotlar pul hisobida bòlgan. Insonlar ehtiyojida metal bir xil segment bo`lib, undan pul sifatda foydalanish osonroq va qulayligi bilan ajralib turgan. Shu sababli ham metallni tanlashadi va maydalab har xil shakllarda foydalanishadi. Pul sifatda foydalanish metallning noyobliga qarab, uning pul hisobidagi narxi balandroq bòlgan. Dunyodagi birinchi tangalar Lidiyada lidiyaliklar tomonidan ishlangan. Ular Kichik Osiyoda yashagan boy va qudratli davlat bòlgan holda iqtisodiyot va xo`jalikni rivojlantirish uchun bir xil narsa orqali sotib olish va sotish kerakligini anglashgan. Shu boisdan ularda birinchi tangalar yaratilgan. Ushbu tangalar 75% oltin va 25% kumushdan iborat qotishma elektrondan yasalgan. Ularning hajmi va shakli loviyaga òxshagan bo`lib, unning nomi Staterlar deb atalgan. Bu tangalarni kòrgan yunonlar ularning afzalliklarini yuqori baholab, òzlari ham ulardan kòchirma tangalar yasashgan. Tangalar tarixning eng yaxshi ashyoviy dalidir chunki oldinda har bir hukmdor zarb etgan tangalar òsha davlatning kuch qudratini va iqtisodiyotini qay darajada ekanligini bildirib turgan. Hukmdorlar òz nomiga atab mis, kumush, oltin tangalar zarb etirgan. Tangalar uzoq òtmishdagi siyosiy, iqtisodiy munosabatlar,

dunyoqarash tizimlari, ishonch va e'tiqodlar haqida, badiiy tasavvurlar to'g'risida bebaho ma'lumotlarni o'zida saqlaydi. Tangalarning yana bir yaralishiga sabab dehqonchilikdan hunarmandchilik, chorvachilikning ajralib chiqishi tangalar yaralishiga olib keldi.

Yevropa tangalari mil. avv. VIII-VII asrlarda Lidiyada va undan keyin, Egina (Yunonistonda) zarb etilib, ularning shakli yumaloqsimon tangalar bo'lgan va qulay bo'lgan. Oltin, kumush, misdan yasilib ular orasiga har xil qotishma metallar quyilgan. Tangalarni zarb etilishi Yevropa xalqlariga qo'l kelgan va ular bozor iqtisodiyotini rivojlantirgan. Shaharlar paydo bo'lib, har bir shahar o'z tangasini zarb ettirib, bu tangalar avval shahar ichida keyinchalik shahar tashqarisada ham muomalada bo'lgan. Shunday tangalar bo'lsada, lekin rivojlanishdan orqada qolgan ayrim davlatlar hali ham natura ko'rinishi bor edi. Masalan, XII-XIII-asrlarda Rus davlatida ko'p hollarda mo'yna pul o'rnida ishlatilgan. Qadimgi Italiyada Apollon chashmasi deb atalagan muqaddas buloqdan 300 kg tangalar topilgan. Ular buloq uchun ehson sifatda tashlangan.

Qadimgi tarixchilar Gerodot va Ksenofont asarlarida ilk tangalarning oltin va kumushdan bo'lganligi haqida aytib o'tigan. Yevropada (Konstantinopolda) Anastasiy I Dikor (491-518 yy) davrida uning nomi bilan qanotli galaba xudosi va (Konstantinopol) nomining harf yozilgan kumush tangasi zarb qilinadi. Bu ham tangalar tarixi rivojlanishiga asos bo'la oladi. Makedoniyalik Aleksandr tetrodraxmasi miloddan avvalgi 323 yil Aversi-hukmdor boshi o'ng tomonga burilgan shoh tasviri va reversi uzatilgan o'ng qo'lida qadah tutib taxtda o'tirgan Zevs tasviri aks ettirilgan.

Kumush tetrodraxma dimetri 28 mm, vazni 17,5 grammni tashkil etgan. Tangalar dizayni o'zgarib borishi davrlarga va hukmdorlarga qarab o'zgarib brogan. Odamlar tangalarni yo'qotib qo'ymaslik uchun o'ziga qulay qilib zarb qilishgan va dizayn jihatdan turli xil ma'budlar va hayvon tasvirlari tushirilgan tangalar tarqalgan. Ayniqsa misdan zarb qilingan tangalar chunki, misni zarb qilish oson bo'lgan. Shu bilan birga soxta tangalar ham chiqqan buning ortidan ko'pgina firibgarlar boyib olishgan. Keyinchalik buni oldini olish uchun hukmdor muhri tushirilgan tamga yordamida zarb qilingan. Shunda ham muhrdan ham nusxa olib ishlab chiqarishgan. Buyuk geografik kashfiyotlardan so'ng Gollandlar, fransuzlar, ispanlar turli hududlarga ekspeditsiya uyushtirib, u yerdagi hayotni o'rganishdi. Bo'lajak mustamlakalarda tanga o'rniga masalan Melaniziya xalqlari pul o'rnida itning tishi va kauri deb atalgan chiganoqlar orqali savdo qilishgani haqida tarixiy kitoblarda yozilgan. Hozirgi kunda ham turli davlatlarda ham shu ko'rinishdagi pul munosabati bor. Yevropa tangalarning qadimiylari Buyuk Britaniya muzeylarida saqlandi. Bu tangalar ichida O'rta Osiyo xonliklar tangalari ham bor.

Insoniyatning ijtimoiy hayotida pul munosabatida katta rol o'ynagan Osiyo va Afrika xalqlariga it tishi, tosh, bolta, taqinchoqlar bo'lgan bular esa pul munosabatiga to'g'ri kelmagan va insonlar metani tanlashgan. O'rta Osiyo tangalari tarixi ham juda boy hisoblanadi. O'rta Osiyoda ham tangalar tarixi uzoq tarixga borib taqaladi. So'g'd va Baqtrya, Kushon davlatlarining paydo bo'lishi o'z pul munosabatlarini yo'lga qo'yish bilan tarixga muhrlanadi. Kushon davlati hukmdori Kanishka tomonidan zarb etilgan tangalar bizning Buxoroda hududidan topilgan. Buxoroda zarb etilgan tangalar davri Sosoniylar davridagi (III-IV asrlarda) tangalar Buxoro hududlarida keng tarqalgan. Sosoniy podshohi Varaxram V ning tangasiga taqlidan mahalliy hukmdorlar tangalar zarb ettiradi va bu tangalar Buxorodotlar tangasi deb atalib, VII-VIII asrlargacha muomalada bo'lib, arablar bosqini tufayli tangalarni muomaladan chiqarilib, o'rniga xuddi o'sha tangalar faqat arab hukmdorlari nomi yozilgan tangalar zarb etigan. IX-X asrlarda Buxoroda Somoniylar

hukmdorligi paytida pul islohoti bòlib òtadi. Somoniy hukmdor Nasr pul islohotida kumush dirham zarb ettiradi. Ularning ichki tangalari yani, mis tangalar fals deb yuritilgan. Kumush tangalar tashqi savdoda ishlatigan ularning nomi dirham deyilgan. Kumush tangalar faqat hukmdor buyruđi bilan zarb etilgan va ular Marv, Samarqand, Buxoro, Shoshda zarb etigan. Yana tilla tanga Nuhning buyruđi bilan Samarqanda 961-962 yillarda zarb etigan. Abdulloh ibn Talxa davrida 15 dan ortiq zarbxonalar bòlgan. Buxoroning òzida esa 30 dan ortiq zarbxonalar bòlgan ular vaqt vaqti bilan ishlab turgan, chunki hukmdor almashganda òzining tangalarini zarb etirgan.

Temuriylar davrida tangalar kòplab zarb etilib savdo aloqalarini yaxshi olib borgan. Amir Temur davrida eng katta 40 ortiq taniqli zarbxonalar bòlib, tilladan kumish, misdan tangalar chiqarib turishgan. Amir Temurning nabirasi Uluđbek Mirzo kumushdan tangalar zarb ettirib, muomalaga qòygan. Xonliklar davrida esa yangi tangalar zarb etilgan. Mangitlar hukmronligiga kelib, Amir Haydar davridan boshlab miriy tangalarni ishlab chiqarilgan. Mangitlar davlatining uch turdagi tangalari bòlgan bular: 1. Ashrafiy ya'ni tilla tanga. 2. Kumush tangalar. 3. Fulusiy tangalar, ya'ni mis tangalar zarb qilingan. Òrta Osiyo hududida tangalarga oid yodgorliklar topib òrgangan olimlar Masson, Tolstov, G'ulomov va hokazo olimlar qidiruv ishlarini olib borib kòplab numizmatikaga oid topilmalar topishgan. Yana Tojikiston, Turkmaniston hududida bòlgan qidiruvlarda tangalari topilib òrganishgan. Xitoy va Hindistonda topilgan tangalar va oldinda pul sifatda nimalardan foydalanishgani haqida ham fikr yuritishimiz kerakdir.

Xitoyda mil.avv 770-476 yillarda hukumronlik qilgan sulolar davrida metal tangalar ishlab chiqarilgan. Mil.avv 350 yillarga kelib òrtasi kvadrat shakldagi teshik tangalar kòpaydi. Bu tangalarni òrtasini teshig bòlgan sababi ularning teshik qismidan ip òtkazib olib yurish oson va xavfsiz bòlgan. Xitoyliklar yevropa kabi metalni kesib yoki maydalab tanga yasashmagan. Ular qoliplardan foydalanib har xil metallardan foydalanishgan. Ular quyma metallar qalay, mis, qòrgòshin, bronza, temir va boshqa metallardan foydalanishgan. Oltin va kumushdan kam foydalangan shu sabab ham tangalarni chet savdoda qòl kelmagan ularning tangalar ichki savdoda yuritilgan. Xan sulolari davriga kelib tangalardan soliq, jarimalar moashlar tòlash uchun keng qòlanilgan. Oldinda tangalar bòlmagan paytda ular turli xil narsalar bilan savdo qilishgan masalan toshbaqaning kosasi, taqinchoqlar, kauri chiđanoqlaridan foydalangan. G'arbiy xan sulolari davrida yiliga òrtacha zarbxonalarda 220 millionga yaqin tangalar zarb etirilgan. Sharqiy Vu sulolasining (222-280 yy) Da quan Vu Qianning faqat 6 turdagi tangalari borligi aytib òtilgan.

Xitoy tangalari òz davlatining muhri yoki shoh tasviri tushirilgan tangalar bòlgan.

Hindiston tangalari mil.avv I ming yilik boshidan VI asrgacha bòlgan joylarda boshlangan u tangalar mis, kumush tangalardan foydalanishgan. Mahenjadar va Xarappa shaharilarda savdo qaynagan ular tangalardan keng foydalanishgan u tangalar shtamplangan tangalar hisob istagan vaqt òzgartirish mumkin bòlgan. Tangalarni yana òzgarishi Zahriddin Muhammad Bobur davrida turli xildagi tangalarni zarb etilishi ham Òrta Osiyoga tangalar kirib borishiga sabab bòlgan.

Maurya imperiyasining ham pul islohotiga qòshgan hissalarini kòp. Hindistonda oltin kòp bòlgan kumush esa kam bòlgan. Shu sababli Eron forslari bilan oltinni kumushga ayirboshlash natijasida kumush kòpaygan va kumush tangalar zarb etib hind rupiyasi ham ishlatilgan. Hindlarda oldinda natura kòrinishi juda avj olgan chunki aholisi kòp millat bòlgan ular ham xitoyliklar kabi kauri chiđanoqi va turli xil qimmatbaho toshlardan foydalanishgan. Hindlarning eng qadimgi

tangalari hozirgi Buyuk Britaniya muzeyida turadi, uning boisi uzoq davr Buyuk Britaniya mustamlakasi bõlgani hamda inglizlar tomonidan keng o`rganilishidir.

Tangalarni kolleksiyaga yig`ish XIV asrdan boshlab asta-sekin odat tusiga kiradi. Qirollar va imperatorlar qimmatbaho tangalarni davlat xazinasidan ajratib olib, maxsus tangalarni saqlovchi xonalarga saqlashi hamda ularni o`rganish, tartib berish uchun olimlarni jalb etganlar.

Hozirgi kunda Angliya, Fransiya, Sankt-Peterburg, Vena, Berlin kabi mamlakat shaharlarida jahondagi yirik yig`ma kolleksiyalar mavjud. Pyotr I tominidan Peterburgda tashkil topgan muzey kuneskomerada boshqa eksponatlar bilan birga tangalar kolleksiyasida 300 mingta tangga pul bor. Hozirgi kunda ham tanga pullarni kolleksiyaga yig`ish bor masalan hozida Bekobodda yashovchi D. Jo`rayevaning kolleksiyasida XV asrga oid 343 ga yaqin tanga bor va u tangalar Temuriylar tarixi davlat muzeyga topshirilgan. Bu tangalar 1491-1495 yillar zarb qilingan. Bu tangalarni zarb qilingan sanasi va joyi tangani o`zida yozilgan. Buxoroda 173 tasi, Samarqandda 91 ta, Shoshda 3 ta, Hisor Shodmon 1 ta, Andijonda 1 ta zarb etigan bo`lib, qolgan 74 tasi yaroqsiz qayerda zarb etilganini aniqlab bõlmagan. Britaniya muzeyida O`rta Osiyo xonliklari tangalari hozirda ham saqlanadi.

Xulosa qilib aytgan tangalarning inson hayotidagi o`rni juda katta tangalarning paydo bõlishi shaharlarning o`zgarishi insonlarning pul bilan savdo qilishi ijtimoiy hayotida katta ahamiyatga ega bõldi. Har bir inson tadbirkorlikka hamda doimiy rivojlanishga qarab intilishiga ham muhim ahamiyat kasb etdi. O`sha davr ijtimoi iqtisodiy hayotini hozirda biz qadimiy tangalardan bilib olmoqdamiz.

REFERENCES

1. Rahmonqulova Z. Xronologiya, T. A. Navoiy nomidagi davlat nashriyoti, Toshkent. 2006.
2. Rahmatullaeva O. Salomov. J. Numizmatika. Metodik qõllanma. 2012.
3. Devid. Xartil (2005yil 22-sentyabr) Quyma Xitoy tangalari. Trofford nashriyoti "YK Kvan tomonidan" chinesischinese net, 2012 yil 3-may. Asl nusxadan arxivlangan. 2012 yil 3-may.
4. Kulke, Herman a Rat hermand Dicfmar (2004) Hindiston tarixi. Routledge ISBN 0-415-329j-19.1.
5. Salimovich, Murodov H. "Tourism Development in Bukhara During the 1990s and Its Problems." *International Journal on Integrated Education*, vol. 5, no. 6, 2022, pp. 298-302.
6. Salimovich, M. H. (2023). MARKAZIY OSIYO TURIZM SANOATI RIVOJLANISHIDAGI YUTUQ VA MUAMMOLAR. *SAMARALI TA'LIM VA BARQAROR INNOVATSIYALAR*, 1(4), 175-184.
7. Мурадов, X. (2023). ОБЗОР ИСТОРИИ РАЗВИТИЯ ТУРИЗМА. *Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари / Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук / Actual Problems of Humanities and Social Sciences.*, 3(S/8). <https://doi.org/10.47390/SPR1342V3SI8Y2023N05>
8. Salimovich, M. H. (2023). BUXORO TURIZMI RIVOJIDA MILLIY HUNARMANDCHILIKNING ORNI. *SAMARALI TA'LIM VA BARQAROR INNOVATSIYALAR*, 1(5), 115-122.

9. Ashurova, G. S., & Murodov, H. S. (2023). ISSUES OF EDUCATION IN THE MIDDLE AGES (IX-XII) CENTURIES AND DEVELOPMENT HISTORY. *Results of National Scientific Research International Journal*, 2(12), 238-240.
10. Ismigul, I., & Halim, M. (2023). Mustaqillik arafasida Ozbekistonda turizm sohasining holati. *SAMARALI TA'LIM VA BARQAROR INNOVATSIYALAR*, 1(5), 256-266
11. Salimovich, M. H. (2024). SANATORIYA–KURORT MUASSASALARI FAOLIYATINING BUXORO TURIZMI RIVOJIDA ORNI. *SAMARALI TA'LIM VA BARQAROR INNOVATSIYALAR JURNALI*, 1(6), 199-204.
12. 13. Salimovich, M. H. (2024). The Role of the Cultural Sector in the Development of Bukhara Tourism. *Miasto Przyszłości*, 45, 729–735. Retrieved from <https://miastoprzyszlosci.com.pl/index.php/mp/article/view/2725>
13. 14. Murodov, H. (2024). VISA POLICY DURING THE ACTION STRATEGY PERIOD. *Modern Science and Research*, 3(2), 637–644. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/30326>
14. 15. Халим, М. (2022). РАЗВИТИЕ МЕЖДУНАРОДНОГО ТУРИЗМА В УЗБЕКИСТАНЕ В ПЕРВЫЕ ГОДЫ НЕЗАВИСИМОСТИ И ЕГО НОРМАТИВНО-ПРАВОВАЯ БАЗА. Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари / Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук / Actual Problems of Humanities and Social Sciences., 1(4), 13. https://doi.org/10.47390/B_1342142022N1
15. Murodov Halim Salimovich. (2023). BUXORO TURIZMI VA MILLIY HUNARMANDCHILIK. *JOURNAL OF ECONOMY, TOURISM AND SERVICE*, 2(12), 93–96. Retrieved from <https://jets.innovascience.uz/index.php/jets/article/view/149>